

6-7
yosh

Bolangiz maktabga tayyormi?

Testlar to'plami



Mundarija

Diqqat	5
Xotira	12
Fikrlash	21
Matematika	34
Nozik motorika va qo'llar harakatini koordinatsiyalash	43
O'qish	50
Nutqni rivojlantirish	57
Tasavvur	66
Atrofimizdagi olam	75

Taqrizchilar:

Hajiza Ibraimova – RTM boshlang'ich ta'lim bo'limi bosh metodisti;


Umida Tulayeva – Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 5-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

Muxtabar Atabayeva – Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 206-sonli maktabgacha va boshlang'ich ta'lim majmuasi tarbiyachisi.

Ushbu qo'llanma Respublika ta'lim markazi huzuridagi «Boshlang'ich ta'lim» yo'nalishi bo'yicha ilmiy-metodik kengashning 2011-yil 28-oktabrdagi 3-sonli yig'ilishda muhokama qilinib (umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshidagi maktabga tayyorlov guruhlari hamda uyda ota-onalar yordamida bolalarni maktabga tayyorlashga oid mashg'ulotlar uchun) nashrga tavsiya etilgan.

Manzura NABIYEVA, Barno ABDULLAYEVA, Shakir URISHOV, Muxtabar ABDIYEVA

BOLANGIZ MAKTABGA TAYYORMI?; ish daftari: 6–7 yoshdagi bolalar uchun / tuzuvchi M.Nabiyeva [va boshqa]; muharrir R. Zapparov; tarjimon A. Akbar; musahhih O. Azimova. – Toshkent: Davr nashriyoti, 2013 – 80 b. – (Maktabga tayyorlanamiz)



Ushbu kitobda bolaning maktabga tayyorligini aniqlovchi testlar to'plangan.

Mazkur kitob orqali bolangizning maktabga tayyorligini aniqlashga yordam beruvchi testlar bilan tanishishingiz mumkin. Testlar bolalar bilan ko'p yillar ishlagan katta tajribaga ega pedagog va malakali ruhshunoslar tomonidan yozilgan.

Ushbu kitob sizning: – Farzandim maktabda o'qishga tayyormi? – degan savolingizga javob topishingizga yordam beradi.

Ba'zida ota-onalar bolam maktabga borishidan avval o'qish, yozish va sanashni o'rganib olsa, maktabda qiynalmay o'qiydi deb o'ylaydi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha bo'lgan davrda o'qish, yozish va sanash bilan ko'p shug'ullangan bola maktabda o'qishga oson kirishsa ham kutilmaganda o'z muvaffaqiyatlarini boy bera boshlar ekan. Buning sababi nimada?

Sababi bola maktabga borgunga qadar bolada diqqat, xotira, fikrlash, tasavvur va nozik motorika kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish e'tibordan chetda qoladi. Bizning fikrimizcha bu juda muhim.

Ushbu kitob 6–7 yoshli bola maktabga qadam qo'yish oldidan qanday hajmda bilim va malakaga ega bo'lishi kerakligi haqida tushuncha hosil qilishingizga, shuningdek, farzandingizning aqliy rivojlanishi qay darajada ekani, bilim darajasining yutuq va kamchiliklarini aniqlashingizga yordam beradi.

Kitob bilan ishlash.

Kitob to'qqizta bo'limdan iborat. Har bir bo'limdagi testlar ma'lum bir yo'nalish bo'yicha farzandingizning maktabga tayyorgarligini baholashingizga xizmat qiladi. Bo'limlar: diqqat, xotira, fikrlash, matematika, nozik motorika va qo'l harakatlari koordinatsiyasi, o'qish, nutq o'stirish, tasavvur va atrofimizdagi olam deb nomlanadi. Har bir bo'limda 9 yoki 10 ta maxsus tanlangan test bo'lib, ularni kitobda berilganidek tartibda bajarish maqsadga muvofiqdir.

Topshiriqlar oldida soat tasviri aks etganini ko'rsangiz, unda farzandingizni testdan o'tkazish uchun sizga soniyani ko'rsatadigan mili bo'lgan soat kerak bo'ladi (soat rasmi bor).



Har bir topshiriqdan so'ng topshiriqni baholash tizimi berilgan. Masalan,



xatosiz



bitta xato



2 ta va undan ortiq xato.

Bola topshiriqni bajarib bo'lgandan so'ng, uning bilimini berilgan gul tasvirini belgilangan rangda bo'yash orqali baholab boring.



Har bir bo'lim oxirida bo'sh gullar aks ettirilgan jamlovchi sahifa berilgan. Bolangiz bo'limdagi topshiriqlarni bajarib bo'lgach, bu gullarni ham har bir topshiriq so'ngida qanday rangga bo'yagan bo'lsangiz shunday rangga bo'yang. Agar sahifada qizil rangdagi gullar ko'proq bo'lib, yashil rangdagilari kamroq bo'lsa, farzandingiz maktabda o'qishga yaxshi tayyorlangan hisoblanadi. Mabodo yashil va ko'k gullar ko'proq bo'lsa, farzandingiz bilan yana qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazishingiz lozim bo'ladi.

Diqqat!

Kitobda ko'plab rang-barang testlar jamlangan. Hech qaysi maktabda bola barcha testlar bo'yicha sinalmaydi. Testlar tanlab olinadi.

Farzandingizni toliqtirib qo'ymang. Kitob bo'yicha bir kunda 30 daqiqadan ortiq shug'ullanmang, yo'qsa bola toliqib, natijalar ham, bolaning imkoniyatlari darajasi ham pasayib ketadi.

Har bir bola bu savollarga javob bera olishi kerak

1. O'zingizning to'liq ism va familiyangizni ayting.
2. Yoshingiz nechada?
3. Tug'ilgan kuningizni ayting.
4. Oyingizning to'liq ism-familiyasini ayting.
5. U qayerda va kim bo'lib ishlaydi?
6. Dadangizning to'liq ism-familiyasini ayting.
7. U qayerda va kim bo'lib ishlaydi?
8. Aka yoki opangiz, uka yoki singlingiz bormi? Ularning yoshi nechada?
9. Turar joyingizni ayting.
10. Qaysi shaharda (qishloqda) yashaysiz?
11. Siz yashaydigan mamlakat qanday ataladi?
12. Maktabga borishni xohlaysizmi? O'quv mashg'ulotlari sizga yoqadimi? Nima uchun?

DIQQAT

Bola maktabda diqqat-e'tiborli bo'lishi kerak. U nafaqat o'qituvchining tushuntirishlariga e'tibor berishi va topshiriqlarini bajarishi kerak, balki butun dars davomida diqqatini to'plab turishi ham zarur. Bu juda muhim.

Bola mavzudan tashqari ishlar, ya'ni sherigi bilan so'zlashish, yoki yangi flomasterida rasmlar chizish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'lmasligi kerak.

Bolaning diqqat-e'tiborli bo'lishi maktabga muvaffaqiyatli ta'lim olish garovidir.

Bo'limda berilgan o'nta test yordamida siz farzandingiz diqqati qanday rivojlanganini baholaysiz.

Testlarning aksariyati topshiriqlarni muayyan vaqt mobaynida bajarish bilan bog'liq. Shuning uchun sizga soniyani ko'rsatadigan mili bor soat kerak bo'ladi.

Esda tuting, maktabda ko'pincha diqqat-e'tibor talab qilinadigan testlar o'tkaziladi.



1. Suratdan «yashiringan shakl»ni toping.




20 soniyagacha



20–30 soniyada



30 soniyadan ziyod
vaqtda



**2. Suratda nimalar chizilgan?
Rasmga qarab barcha buyumlar nomini ayting.**




30 soniyagacha




30–60 soniyada



1 daqiqadan ortiq vaqtda



3. Ikkita bir xil soyabonni toping.



1 daqiqada



1-3 daqiqada



3 daqiqadan ziyod
vaqtda

4. Shakllarni namunadagidek bo'yang.




xatosiz




1-2 ta xato



2 tadan ortiq
xato



5. Har qatordan alohida katakda ko'rsatilgan buyumga o'xshashini toping.



1 daqiqagacha
vaqtda
1-3 daqiqada



3 daqiqadan ziyod vaqtda



6. 1 dan 20 gacha bo'lgan barcha raqamlarni toping va tartib bilan sanang. Buni iloji boricha tez bajarishga harakat qiling.




30 soniyagacha vaqtda



30-60 soniyada



1 daqiqadan ziyod
vaqtda



7. Rasmlarni solishtirib 10 ta farqni toping



bola 10 ta farqni topdi



7 tadan 9 tagacha farqni topdi




7 tagacha farqni topdi



8. Namunada berilgan belgilarni ko'zdan kechiring va quyidagi bo'sh katakchalarni raqamlar ostidagi belgilarga mos tarzda to'ldiring.

1	2	3	4	5	6	7	8	9
∨	○	+	-	⊥	∪	÷	×	+



3	8	1	7	4	5	2	6	4	1	9	5	2	7	8	1
2	4	5	3	8	9	1	5	8	4	6	7	3	1	4	2
1	7	3	5	9	4	6	1	8	7	3	5	1	4	9	8



2-3 daqiqada



3-4 daqiqada



4 daqiqadan ko'proq vaqtda

9. Barcha O harfini o'chiring, A harfini aylana ichiga oling.

A N R L T U E K F Y O' N R F J L A H S K G
D Q Z P F S D V B L Y U D L O A E R O' G
O F D E Y A X O P L H F M B Z Q Y T A O
F R Q X V T L O G' T E Q S P Z V M D J K
Q Y T B V A D L K V H X Z O A U Y T P K O'



2 daqiqagacha vaqtda



2-3 daqiqada



3 daqiqadan ortiq vaqtda



10. Gulning nomini eshitganingizda chapak chaling:

sabzi, lolaqizg'aldoq, chittak,
samolyot, moychechak, qalam, daftar,
taroq, qo'qongul, o't, atirgul, qarag'ay,
buta, barg, shox, gladiolus, chumoli,
sallagul, ayg'oqchi, daraxt, bo'tako'z,
piyola, qalamdon.




xatosiz topdi







1-2 ta xato



2 tadan ortiq xato



**FARZANDIMNING DIQQATI
QANDAY RIVOJLANGAN?**



XOTIRA

Farzandingizning maktabda muvaffaqiyatlarga erishishi ko'proq uning xotirasiga bog'liq.

Kichkintoylar turli-tuman ma'lumotlarni eslab qolishadi. Bolakayga she'rni bir necha marta o'qib berishning o'zi uni yodlab olishiga kifoya qiladi. Biroq kichkintoylarning xotirasi g'ayriixtiyoriydir, ya'ni bola uchun nima qiziq tuyulsa, u o'shani ko'proq eslab qoladi. Bola o'z oldiga men mana shu she'rni yodlab olishim kerak degan vazifani qo'ymaydi.

U maktabga qatnay boshlashi bilan unda ixtiyoriy xotira shakllanadi. Maktabda katta hajmdagi ma'lumotlarni xotirada saqlashga to'g'ri keladi. U endi faqat qiziqarli ma'lumotlarnigina emas, balki kerakli ma'lumotlarni ham esda saqlab qolishi lozim bo'ladi.

Quyida berilgan testlarga asosan farzandingiz xotirasi qandayligini aniqlashingiz mumkin.

Natija siz kutgandek bo'lmasa, xafa bo'lmang. Xotira albatta rivojlanadi, uni rivojlantirish uchun sizda hamisha vaqt topiladi.

Farzandingiz xotirasini rivojlantirish uchun u bilan «Xotirani rivojlantiramiz» ish daftari bo'yicha mashg'ulot olib boring.

1. Suratlariga diqqat bilan qarab, narsalarni eslab qolishga harakat qiling.

Suratlarni ko'rish uchun bolaga 1 daqiqa vaqt bering.

Shundan so'ng kitobni yopib, undan ko'rgan narsalarini sanab berishini so'rang.



9–10 ta narsani esladi



6–8 ta narsani esladi




6 tadan kam narsani esladi



2. Shakllarni diqqat bilan ko'zdan kechirib, ularni eslab qolishga harakat qiling. Shakllarni o'zidek qilib chizing.

Bola 2 daqiqa davomida shakllarni ko'zdan kechiradi. Siz shakllarni qog'oz bilan yopib, bolaga ko'rganlarini chizishni taklif qiling.



7-9 ta shaklni chizdi













4-6 ta shaklni chizdi













4 tadan oz shaklni chizdi













3. Qarab, shakllarning juftini eslab qoling.

Bola shakllar juftini eslab qolgach, rasmlarni qog'oz bilan berkiting. So'ng undan quyida berilgan jadvallarni eslab qolganidek chizib berishini so'rang.




8-10 ta belgini chizdi



5-7 ta belgini chizdi



5 tadan oz belgini chizdi



4. Ko'rib, rasmni eslab qoling.



Rasmni qog'oz bilan yopib, boladan quyidagi savollarga javob oling:

1. Stolda nimalar turibdi? (Guldon, gullar, olmalar)
2. Guldonda nechta gul bor? (5 ta)
3. Ular qanaqa rangda? (Oq)
4. Stolda nechta olma bor? (3 ta)
5. Polda qanday o'yinchoqlar yotibdi? (Piramidacha, kubiklar, koptokcha)
6. Stulda kim o'tiribdi? (Hech kim)
7. To'tiqush qafasdami? (Yo'q)
8. Mushukning rangi qanaqa? (Malla, yo'l-yo'l)
9. Devorga osilgan rasmda qanday daraxtlar chizilgan? (Archalar)




1 ta xato



2-3 ta xato



3 tadan ortiq xato



5. 10 ta soʻzni diqqat bilan eshitib, yodda saqlab qolishga harakat qiling.

shar, mushuk, oʻrmon, deraza, qoʻziqorin, soat, shamol, stol, koʻzoynak, kitob.

Boladan eshitgan soʻzlarini oʻqilgan tartibda aytib berishini soʻrang.



6 ta soʻzni aytdi



4–5 ta soʻzni aytdi



4 tagacha soʻzni aytdi



6. Jumlani tinglang, eslab qolib, qaytaring.

Bolaga jummalarni bittadan oʻqing.

1. Oʻrmonda qoʻziqorinlar oʻsadi.
2. Ertalab kuchli yomgʻir yogʻdi.
3. Ona bolalarga qiziqarli kitob oʻqib berdi.
4. Vahob bilan Sobirda qizil va koʻk sharlar bor.

Agar farzandingiz birinchi eshitgandayoq jummalarni aynan oʻzidek qaytarsa, bu juda yaxshi.



4 ta jumlani oʻzidek qaytardi



1 ta jumlani xato aytdi



2 va undan ortiq jumlani xato aytdi



7. Sheʼrni tinglab, yodlab oling.

Sheʼrni farzandingizga oʻqib berib, undan qaytarishini soʻrang. Agar bolangiz uni xato qaytarsa, yana bir necha marta oʻqib berib, soʻng qaytarishini soʻrang. Sheʼrni 4 martagacha oʻqib berishingiz mumkin.

Qor yogʻmoqda,
Koʻcha oq.
Yaxdek qotgan
Hammayoq.

2013/21 A 6854	Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston MK
----------------------	----------------------------------------------



She'rni 1–2 o'qishdan keyin so'zma so'z qaytardi



She'rni 3–4 o'qishdan so'ng so'zma so'z qaytardi



4 marta o'qigandan so'ng ham xato qildi



8. Juft so'zlarni diqqat bilan eshitib, yodda saqlab oling.

Bolaga 10 juft so'zni o'qib bering. So'ng unga birinchi so'zlarni ayting, bola ularning juftini eslab, aytsin.

kuz – yomg'ir
guldon – gullar
qo'g'irchoq – ko'ylak
idish – tovoq
kitob – sahifa
suv – baliq
mashina – g'ildirak
uy – deraza
katak – it
soat – millar



8–10 ta so'z juftini aytdi



5–7 ta so'z juftini aytdi



5 tagacha so'z juftini aytdi



9. Raqamlar tartibini yodda saqlab qoling. Uni qaytaring.

Bu raqamlarni ko'rish uchun bolaga 10 soniya vaqt bering.
Fikri bo'linmasligi uchun 10-topshiriqni qog'oz bilan bekitib turing.
Bu topshiriqni bola xatosiz bajarishi kerak.



xatosiz bajardi




xato qildi



10. Raqamlar tartibini yodda saqlab qoling. Uni qaytaring.

Bu rasmlarni ko'rib olish uchun bolaga 20 soniya vaqt bering.
Fikri bo'linmasligi uchun 9-topshiriqni qog'oz bilan yashirib turing.




1 ta xato





2 ta xato



2 tadan ortiq xato



**FARZANDIMNING XOTIRASI QANDAY
RIVOJLANGAN?**



FIKRLASH

– Vaqt mashinasi qanday tuzilgan? – deb so‘radi Aziza.

– Bilmayman. Uni hali hech kim o‘ylab topmagan, – deb javob berdi katta yoshli kishi.

– Katta bo‘lsam, o‘zim uni o‘ylab topaman... O, topdim uni! Buning uchun soatga motor o‘rnataman. Ana shunda vaqt mashinasi paydo bo‘ladi!

Gohida farzandlarimizning yuqoridagiga o‘xshash g‘aroyib va aqlli fikr yuritishlariga guvoh bo‘lib, quvonib ketamiz.

Bola dunyoni bilgani sari fikrlashga o‘rganib boradi. U munosabatlarning sabab va mohiyatini aniqlashga, umumlashtirishga, qiyoslashga odatlanib boradi.

Maktabgacha qo‘llaniladigan testlarda aynan fikrlashga chorlovchi testlar ko‘p uchraydi.

Bunday topshiriqlarni bajarishda bola qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Shuning uchun unga topshiriqni bajarish tamoyilini shoshilmay tushuntiring, undan so‘ng shunga o‘xshash topshiriq bering. Yaxshisi, bolaning fikrlashini rivojlantirish uchun u bilan «fikrlashni rivojlantiramiz» daftari bo‘yicha mashg‘ulot olib boring.

1. Har bir guruh ichidagi narsalarni bir so'z bilan nomlang.

Bola barcha guruhdagi narsalarni umumlashtiruvchi so'zlar bilan nomlashi shart: sabzavotlar, mevalar, idishlar, mebel, oyoq kiyimlar, kiyimlar, hasharotlar, hayvonlar, qushlar.





xatosiz





bitta xato



2 va undan ortiq xato



2. Har bir qatordan qatordagi buyumlarga mos bo'lmagan ortiqcha predmetni topib, nomini ayting. Uning nima uchun ortiqcha ekanini tushuntiring.



Bola har bir qatordagi ortiqcha predmetni topa olishi kerak.
Javoblari: gul, qayiq, samolyot, komod.

Maktabdagi testlarda ko'pincha boladan ortiqcha predmetni topish bilan birga, uning nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirib berishi ham so'raladi. Farzandingiz bilan bu borada suhbatlashing.



xatosiz



bitta xato




2 va undan ortiq xato




3. Gilamchaga mos yamoqni tanlang.


A



B



D



Bola berilgan uchta gilamchaga mos keladigan yamoqlarni topishi shart.

Javoblari: A–№5, B–№6, D–№4



xatosiz








bitta xato








2 ta va undan ortiq



4. Moslikni toping. Bo'sh katakchalarga mos keladigan shakllarni chizing.



Javoblari:

- 1** 
- 2** 
- 3** 
- 4** 
- 5** 



xatosiz



1-2 ta xato



3 va undan ortiq xato



5. Rasmlarga diqqat bilan qarang. Qaysi biri avval, qaysi biri keyin sodir bo'lganini so'zlab bering.

Bola bu topshiriqni qiynalmasdan bajarishi uchun, siz rasmlarni qirqib, boladan ularni tartib bilan taxlab berishini so'rashingiz mumkin.




Bola voqealar rivoji tartibini mustaqil aniqlashi kerak.



xatosiz




xato bilan



6. Yuqoridagi rasmlarga nima yetishmayotganini pastdagi rasmlardan toping.



1




2



3



4



Javoblari: 1-in, 2-qo'ziqorin, 3-buzoqcha, 4-in.

Maktabda o'tkaziladigan testlarda boladan nafaqat yetishmayotgan predmet so'raladi, shuningdek, u aynan nega o'sha predmetni tanlaganini tushuntirib berishi ham so'raladi. Bu haqida farzandingiz bilan suhbatlashing.



xatosiz



bitta xato



2 va undan ortiq xato



7. Kichik hikoyalarni tinglab, savollarga javob bering.

Bolangizga hikoyalarni o'qib bering va har bir hikoyadan so'ng savolning javobini oling.

A.

Sobir bilan Po'lat ikki xil kurtka kiyishgan: ko'k va yashil. Sobirning kurtkasi ko'k emas. Po'latning kurtkasi qanaqa rangda?

B.

Ozoda bilan Lola bo'yoq va qalamda rasm chizishdi. Ozoda bo'yoqda rasm chizmadi. Lola nimada rasm chizdi?

D.

Alisher va Mahmud she'rlar va ertaklar o'qishdi. Alisher ertaklarni o'qimadi. Mahmud nima o'qidi?

Javoblari: A – ko'k, B – bo'yoqda, D – ertaklar.



xatosiz



bitta xato



2 va undan ortiq xato



8. Savollarga javob bering:

A. Polizda nima ko'p: kartoshkami yoki sabzavotlar?

B. O'rmonda nima ko'p: hayvonlarmi yoki quyonlar?

D. Shkafda nima ko'p: kiyimlarmi yoki ro'mollar?

Javoblar: A – sabzavotlar; B – hayvonlar; D – kiyimlar.

Maktab testlarida ko'pincha boladan savolga javob topishgina emas, balki o'z javobini tushuntirib berish ham so'raladi. Bu haqida farzandingiz bilan suhbatlashing.



xatosiz



xato bilan



9. Hikoyani tinglab, savolga javob bering.

Farzandingizga hikoyalarni o'qib bering va har bir hikoyadan so'ng savolga javob oling.

A.

Bog'da olcha, olma va nok daraxtlari o'sardi. Olcha olmadan pastroq, olma esa nokdan pastroq edi. Bog'dagi eng baland daraxt qaysi? Eng past daraxt-chi?

B.

Sobir, Javohir va Adham kim o'zar o'ynashdi. Sobir Javohirdan o'zib ketdi, Javohir esa Adhamdan o'zdi. Kim birinchi bo'ldi, kim oxirida qoldi?

D.

Ziyrak, Olapar va To'rtko'z degan kuchuklar bo'lgan ekan. Ziyrakning yungi Olaparnikiga qaraganda momiqroq, Olaparning yungi esa To'rtko'zning yungidan momiqroq ekan. Kuchuklardan qay birining yungi eng momiq va qay biriniki eng silliq?

Javoblar:

A – eng baland daraxt – nok, eng past daraxt – olcha; B – eng tez yugurgan bola – Sobir, eng sekin yugurgan bola – Adham; D – eng momiq yungli kuchuk – Ziyrak, eng silliq yungli kuchuk – To'rtko'z.




xatosiz




bitta xato



2 va undan ortiq xato



FARZANDIMNING FIKRLASH QOBILIYATI QANDAY RIVOJLANGAN?



MATEMATIKA

Maktabga borishdan oldin bola oddiy matematik tushunchalarga ega bo'lishi kerak.

Bolalar birdan o'ngacha bo'lgan tartib va sanoq sonlarni bilishlari, narsalarning bo'yi, eni va uzunligini solishtirishni, narsalarning shakllarini farqlay olishlari, kenglik va qog'oz yuzasida mo'ljalni to'g'ri olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Bolaning bu ko'nikmalarini «Matematika» bo'limida berilgan test topshiriqlari yordamida aniqlash mumkin. Bu bo'limda berilgan topshiriqlar bolangizga qiyinlik qilsa, «Sanashni o'rganamiz», «Masalalar yechishni o'rganamiz» ish daftarlari bilan mashg'ulotlar o'tkazing.


1. Daraxtlarning bo'ylarini aniqlang.

Bolaga raqamlarni tartib bilan qo'yishida yordamlashing.



Eng enlidan eng ensiz lentagacha bo'lgan lentalarni toping.

Bolaga raqamlarni tartib bilan qo'yishida yordamlashing.



Eng uzundan eng kalta ilongacha bo'lgan ilonlarni toping.

Bolaga raqamlarni tartib bilan qo'yishida yordamlashing.




xatosiz




bitta xato



2 va undan ortiq xato



2. Yuqoriga uchayotgan kemalarni qizil rangga, pastga uchayotganlarini sariq rangga bo'yang.



xatosiz




bitta xato



2 va undan ortiq xato



3. Barcha geometrik shakllarning nomini ayting?



xatosiz



bola oval va rombni aytishda yanglishdi




bola boshqa shakllar nomini aytishda yanglishdi



Ba'zan maktabda o'tkaziladigan test sinovlarida bola biroz murakkab shakllar nomini aytishni ham so'raydi. Bola ular nomlarini ham bilishi kerak.



oltiburchak



to'rtburchak

4. Hayvonlarni tartib bilan sanab chiqing. Rasmga qarab savollarga javob bering.



1. Quyon hisob bo'yicha nechanchi?
2. Sichqon hisob bo'yicha nechanchi?
3. Ayiq hisob bo'yicha nechanchi?
4. G'oz hisob bo'yicha nechanchi?
5. Oltinchi hayvondan so'ng qaysi hayvon?
6. To'qqizinchi jonivordan oldin qaysi jonivor?
7. To'rtinchi va oltinchi hayvonlar o'rtasida qaysi jonivor?
8. Sakkizinchi va o'ninchi jonivorlar o'rtasida qaysi jonivor?




xatosiz



1-2 ta xato



3 ta va undan ortiq xato



5. Sonlar qatorini davom ettiring.

Boladan shu tartibda sanashni davom ettirishini so'rang

A 2, 4, 6... (10 gacha)

B 2 dan 9 gacha

D 8 dan 3 gacha




barcha topshiriqlarni xatosiz bajardi




bitta topshiriqda xato qildi



2 va undan ortiq topshiriqda xatoga yo'l qo'ydi



6. Tushib qoldirilgan sonlarni yozing.




xatosiz








bitta xato



2 va undan ortiq xato



7. Boladan sonlarning qo'shni sonlarini yozishni so'rang.




xatosiz



bitta xato



2 va undan ortiq xato



8. Matematik belgilarni qo'ying: $>$, $<$, $=$

Agar bolangiz bu belgilar bilan tanish bo'lmasa, ularning ahamiyatini tushuntirib, belgilarni birgalikda qo'ying.

Muhimi, bola «katta», «kichik» va «teng» tushunchasini to'g'ri ilg'ab olsin.

1		3
----------	--	----------

2		2
----------	--	----------

4		5
----------	--	----------

6		2
----------	--	----------

8		8
----------	--	----------

9		10
----------	--	-----------

7		4
----------	--	----------

5		8
----------	--	----------



xatosiz



1-2 xato



3 va undan ortiq xato



9. Misollarni yeching.

$$2 + 1 =$$

$$3 + 4 =$$

$$2 + 3 =$$

$$4 - 1 =$$

$$3 + 1 =$$

$$5 - 2 =$$

$$4 + 2 =$$

$$3 - 3 =$$



1-ta xato



2-3 xato



4 ta va ortiq xato



10. Masalalarni yechish uchun katakchalarga kerakli raqamlar va matematik belgilar yozing.

Bola masalani yechsin. U har doim ham yoza olmaydi. Bu qanday bajarilishini unga tushuntiring.

A. Guldonda uchta lola va ikkita nargis bor.
Guldonda hammasi bo'lib nechta gul bor?

--	--	--

B. Vazada to'rtta olma va ikkita nok bor.
Vazada hammasi bo'lib nechta meva bor?

--	--	--

D. Garajda sakkizta mashina bor edi.
Ulardan uchtasi ketdi. Garajda nechta mashina qoldi?

--	--	--



bola barcha masalalarni to'g'ri yechdi




bola 2-ta masalani to'g'ri yechdi



bola bitta masalani to'g'ri yechdi yoki birorta masalani yecha olmadi



**FARZANDIMNING MATEMATIK TASAVVURI
KERAKLI DARAJADA SHAKLLANGANMI?**




NOZIK MOTORIKA VA QO'LLAR HARAKATINI KOORDINATSIYALASH

Farzandingiz qo'li xat yozishga tayyormi? Buni bola qo'llari harakatining koordinatsiyasi va nozik motorikaga ko'ra aniqlash mumkin. Bu borada kitobning mazkur bo'limi sizga yordam beradi.

Nozik motorika – bu qo'l panjasi mushaklarining turli-tuman harakatlari yig'indisi. Faqat yaxshi rivojlangan panjalargina oson va chiroyli yoza oladi. Bolalarda nafis, nozik motorikani albatta rivojlantirish kerak, bu imkonsiz narsa emas. Rasm chizish, mozaika bilan ishlash, plastilin, loy bilan shug'ullanish mashg'ulotlari orqali nafis motorika amalga oshiriladi.

Agar farzandingiz mazkur bo'lim topshiriqlarini bajara olmasa, u bilan nozik motorikani rivojlantirish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar o'tishingiz lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, bola bilan «Qo'lni yozishga tayyorlaymiz» ish daftari bo'yicha, bu daftardagi topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng esa, «Yozishni o'rganamiz» ish daftari bo'yicha shug'ullanasiz.

1. Yo'lakchalarning o'rtasidan qalamni qog'ozdan uzmagan holda chiziq chizing.




xatosiz chiziq chizdi



1-2 marta chegaradan chiqib keldi



3 va undan ortiq marta chegaradan chiqdi



2. Koptoklarni kegliga tekkizing. Qalamni qog'ozdan uzmagan holda koptokchalardan kegliga to'g'ri chiziqlar chizishga harakat qiling.



barcha chiziqlar to'g'ri kegliga borib tegdi.




1-2 ta xato



(kegliga yetib bormagan, qiyshiq chiziqlar xato hisoblanadi)

3 ta va undan ortiq xato



3. Qalamni qog'ozdan uzmagun holda rasmlar bo'ylab yurgizib chiqing.



1-2 marta chegaradan chiqib ketdi



3-4 marta chegaradan chiqib ketdi





5 va undan ortiq marta chegaradan chiqib ketdi



4. Qalamni qog'ozdan uzmagun holda naqshlar chizishni davom ettiring.

Naqshlar gorizontal chiziqdan juda ham og'ib ketmasligi kerak.



xatosiz.




xato bilan



bola bitta naqshni yoki barcha naqshni chiza olmadi



5. Katakchalar bo'ylab naqshlarni chizing.



xatosiz



bola bitta naqshda xatoga yo'l qo'ydi



bola ikkala naqshda ham xatoga yo'l qo'ydi



6. Diqqat bilan quloq soling. Qalamni nuqtaga qo'ying, bir katakcha pastga, bir katakcha o'ngga, bir katakcha yuqoriga, bir katakcha o'ngga, bir katakcha pastga, bir katakcha o'ngga, bir katakcha yuqoriga, bir katakcha o'ngga chizing. Oxirigacha shu tarzda naqshni chizib chiqing.



Bu mashqiy topshiriq

Ikkinchi topshiriq: qalamni nuqtaga qo'ying, ikki katakcha yuqoriga, ikki katakcha o'ngga, ikki katakcha pastga, ikki katakcha o'ngga, ikki katakcha yuqoriga, ikki katakcha o'ngga chizing. Naqshni shu tariqa oxirigacha chizib chiqing.



Faqat ikkinchi topshiriq natijalari baholanadi.



xatosiz



bitta xato



2 ta va undan ortiq xato



7. Xuddi shunday shaklni katakchalarga chizib chiqing.



xatosiz




1-2 xato



3 ta va undan ortiq xato



8. Xuddi shunday shaklni katakchalarga chizib chiqing.



xatosiz






1-2 xato



3 ta va undan ortiq xato



9. Katakchalarga yonidagidek shakllarni chizing.



xatosiz



bitta figura xato



2 ta va undan ortiq figurada xato



10. Qalamni qog'ozdan uzmagun holda chiziq bo'ylab yurgazib, rasmning atrofini chizib chiqing.



1-2 marta chegaradan chiqib ketdi








3-4 marta chegaradan chiqib ketdi



5 va undan ortiq marta chegaradan chiqib ketdi



**FARZANDIMNING QO'LI YOZISHGA TAYYORMI,
NOZIK MOTORIKASI QANDAY RIVOJLANGAN?**



O'QISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilimlariga bo'lgan talablar doimiy ravishda ortib bormoqda. Bugungi kunda bolaning dastlabki o'qish ko'nikmalariga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega. U tovushning so'zdagi o'rnini bilishi, alohida tovushli so'zlarni ajrata olishi, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lishi, so'zlardan gaplar tuza olishi kerak.

Bolangiz oddiy so'zlarni yoza olsa, kichik matnlarni o'qiy olsa, ma'nosini tushunsa juda ham yaxshi.

O'qish ko'nikmasining shakllanishi bolaning boshqa predmetlarni o'zlashtirishiga yordam beradi. Natijada bola maktabda darsliklar bilan ishlashni tez o'zlashtiradi, matnlarni o'qish bilan birga ularning ma'nosini ham tushunadi.

Bu turkumdagi materiallar bolangizning o'qish ko'nikmasi qanchalik rivojlanganini aniqlashda sizga yordam beradi.

1. Rasmlardagi narsalar nomini ayting. Kataklarga aytgan soʻzlarningizning bosh harflarini yozing.



xatosiz



1 ta xato



2 ta va undan ortiq xato



2. So'zlardagi harflarni sanang va kataklarga yozing:

IT
UZUM
KITOB
TULKI




xatosiz



1 ta xato



2 ta va undan ortiq xato



3. Rasmdagi narsalar nomini kataklarga yozib chiqing.

--	--	--	--



--	--	--	--	--	--



--	--	--



--	--	--	--	--	--



--	--	--	--	--




bitta so'zda xato qildi



2 ta so'zda xato qildi



3 ta va undan ortiq so'zda xato qildi



4. Soʻzni boʻgʻinlarga boʻlishga harakat qiling. Har bir soʻzda nechta boʻgʻin boʻlsa shuncha marta chapak chaling.

Bola har bir soʻzni boʻgʻinlarga boʻlib, har bir boʻgʻinda chapak chalishi kerak. Birgalikda har bir soʻzdagi boʻgʻinlar sonini yozing.

GUL KOPTOK
KAMALAK VELOSIPED




xatosiz



bitta soʻzda xato qildi



2 ta va undan ortiq soʻzda xato qildi



5. Hikoyani oʻqing va uning mazmunini aytib bering.

Tulki va quyon.

Tulki quyonni koʻrib qoldi. Pusib uning yoniga bordi. Quyon uni sezib qoldi va oʻzini panaga oldi. Tulki uning orqasidan yugurdi. Quyon qayerga yugursa tulki ham uning orqasidan boraverdi. Quyon bir sakrab daraxtning panasiga yashirib oldi. Tulki uni sezmedi va oldidan oʻtib ketdi.

Bola matnni mustaqil oʻqib, mazmunini soʻzlab bera olishi kerak. Soʻzma soʻz hikoya qilib berish talab etilmaydi.




matnni oʻqib, maʼnosini soʻzlab berdi



matnni oʻqidi, biroq maʼnosini soʻzlab bera olmadi



matnni oʻqiy olmadi



6. Noto'g'ri harflarni toping.

A B R И E U Q D
K J T G H I Ъ Z
X V O Y S F J M
C G' B Э P D Я N



1-2 ta noto'g'ri harfni payqamay qoldi



3-4 ta noto'g'ri harfni payqamadi



5 ta va undan ortiq noto'g'ri harfni payqamadi



7. So'zni o'qing va unga mos rasmni toping.

Bola so'zni o'qib, kerakli rasmni topishi kerak.



kema



konfet



bo'g'irsoq



xatosiz




1 ta xato



2 ta va undan ortiq xato



8. Harflardan soʻz tuzing.



barcha soʻzni tuzdi



2 ta soʻz tuzdi



bitta soʻz tuzdi



9. Soʻzlardan gap tuzing.

SOCHMOQDA

OSMONDA

NUR

YORQIN

QUYOSH

2 ta toʻgʻri javob boʻlishi mumkin: «Quyosh osmonda yorqin nur sochmoqda». «Yorqin quyosh osmonda nur sochmoqda».





gap tuzdi



gap tuza olmadi



FARZANDIM MATN O'QISHGA TAYYORMI?



NUTQNI RIVOJLANTIRISH

6–7 yashar bolaning nutqi boy soʻz zaxirasiga ega, mantiqan bogʻlangan boʻlishi kerak. Kichkintoy barcha tovushlarni toʻgʻri eshitishi va ona tilidagi barcha tovushlarni ona tilida ayta bilishi kerak.

Ogʻzaki nutqning rivojlanishi uning yozuv va oʻqishni aʼlo darajada oʻzlashtirishining garovidir.

Bolaning nutqi rivojlanmagan, soʻz boyligi oz boʻlsa, uni siz qoʻshimcha shugʻullanish orqali yaxshilashingiz mumkin. Siz bolaga ushbu kitobdan 6–9 ta bir-biriga oʻxshash topshiriq bering. Farzandingiz bilan koʻproq suhbatlashing. Varaqlaydigan kitoblari, koʻradigan multfilmlari haqida gapirib berishini soʻrang. Bolangizdan rasmga qarab hikoya tuzishni soʻrang.

Agar bolangiz alohida tovushlarni talaffuz qilishda qiynalsa yoki tovushlarni bir-biridan yomon farqlasa, (masalan, qoʻyni-koʻy, bolani tola tarzida qabul qilsa) siz logoped yordamidan foydalanish uchun unga murojaat etishingiz mumkin.

1. Narsalar nomini ayting.

Bola barcha tovushlarni aniq va tiniq talaffuz qiliishi lozim.

S



SAMOLYOT



QISQICHBAQA



AVTOBUS

Q



QUYON



BALIQ



AYIQ

D



DARAXT



O'RDAK



BODRING

J



JO'JA



JIRAF

B



BAYROQ



ROBOT



KITOB

Z



ZOG'CHA




QO'NG'IZ



PIYOZ

R



RAKETA



SURAT



SIGIR

L



LAMPA



VELOSIPED



STUL

G



GUL



GILAM



BARG



barcha tovushlarni aniq talaffuz qildi



bitta tovushni talaffuz qilishda qiynaldi



ikki va undan ortiq tovushni talaffuz qilishda qiynaldi



2. So'zlar qaysi tovushga ko'ra farqlanayotganini aniqlang.

Bolaga bir juft so'zni o'qiting. Bola har bir juft so'zdagi tovush farqini aytsin.

ECHKI – ESKI O'YIN – O'TIN
KUN – TUN LOLA – BOLA




xatosiz



1-ta xato



2-ta va undan ortiq xato



3. Har bir qatordagi ortiqcha rasmni toping. Har bir suratning birinchi tovushiga e'tibor bering.

Bola so'zni boshqa tovush bilan boshlanuvchi so'zdan qiynalmasdan ajratish kerak.



xatosiz



1 ta xato



2 ta va undan ortiq xato



4. Boshqa tovushni eshitganingizda chapak chaling.

Bolaga tovushlar tizimini o'qib bering.

sh-sh-s-sh

g-g-g-k-g

s-s-s-z-s

r-r-l-r-r




xatosiz



1 ta xato



2 ta va undan ortiq xato



5. Boshqa so'zlardan farq qiladigan so'zni eshitganingizda chapak chaling.

Bolangizga so'z qatorini o'qib bering.

– bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, qo'g'irchoq, bo'g'irsoq;

– lola, lola, lola, bola, lola;

– sholg'om, sholg'om, shabnam, sholg'om;

– qayiq, qayiq, ayiq, qayiq, qayiq.




xatosiz



1 ta xato



2 ta va undan ortiq xato



6. Qarama-qarshi ma'noli so'zlarni toping.

Bola berilgan misollarga qarama-qarshi ma'noli so'zlarni topishi kerak.

Baland-baland emas tarzidagi javoblar xato hisoblanadi.

sekin – tez

kun – ...

issiq – ...

qalin – ...

yaxshi – ...




xatosiz



1 ta xato



2 ta va undan ortiq xato



7. Savollarga javob bering.

Bolaga savollarni o'qib bering. Bola har bir taklif etilgan sifatga mos so'z tanlay olishi kerak.

Nima nordon, qizil, tez, yumshoq **bo'ladi?**

Nima sakrashni, suzishni, kuylashni **biladi?**

Baliq, samolyot, qurbaqa, mashina **nima qiladi?**



barcha so'zlarni to'g'ri tanladi



1-2 ta xato qildi



3 ta va undan ortiq xato qildi



8. So'zlarning ma'nosini tushuntiring.

Bolaga so'zni o'qib bering. Unga so'zning ma'nosini tushuntiring. Bu topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin bolaga, masalan, «stul» so'zini aytib, topshiriqni bajarish yo'lini tushuntiring. Tushuntirayotganingizda bola bu so'z qaysi guruhga (stul – bu mebel) taalluqliligini, u nimadan tayyorlanganligini (stul yog'ochdan tayyorlangan) va u nima uchun kerakligini (stul o'tirishimiz uchun kerak) tushuntiring. Topshiriqni shu tarzda bajartiring.

Daftar. Samolyot. Qalam. Stol.



bola to'rtta so'zning ma'nosini to'liq tushuntirdi



bola 2-3 ta so'zning ma'nosini tushuntirdi



bola bitta so'zning ma'nosini tushuntirdi yoki topshiriqni bajara olmadi



9. Hikoyani tinglab, uni eslab qolishga harakat qiling.

Bolaga hikoyani o'qib bering. Savollarga javob berishini so'rang.

Izg'irin

Birinchi sinf o'quvchisi Tolib ertalab uydan chiqdi. Izg'irin turgan edi. Daraxtlar qattiq shovullardi. Qo'rqib ketgan bola terak ostida turib: «Maktabga bormayman. Qo'rqinchli», deb o'ylardi.

Shu payt u tol tagida turgan Sobirni ko'rib qoldi. Qo'shnisi Sobir ham maktabga borishga qo'rqib turardi.

Bolalar bir-birini ko'rishdi. Ular quvonib ketishdi. Bir-birlariga peshvoz chiqishib, qo'l ushlab maktabga jo'nashdi. Izg'irin qancha hushtak chalmasin, endi qo'rqinchli emas edi.

Savollarga javob bering.

1. Hikoyada kimlar haqida so'z bordi?
2. Bolalar nechanchi sinfda o'qishar ekan?
3. Bolalar nega quvonib ketishdi?



barcha savollarga to'g'ri javob berdi



2 ta savolga to'g'ri javob berdi




faqat bitta savolga to'g'ri javob berdi yoki umuman javob bera olmadi



10. Rasmga qarab hikoya tuzing.

Bola hikoyaga sarlavha topishi kerak. Shuningdek, rasm mazmunini to'liq ifoda etib, keng tarqalgan so'zlar asosida hikoya tuzishi kerak. Hikoya kamida 7 ta gapdan iborat bo'lishi lozim.



7 ta va undan ortiq gapdan iborat hikoya tuzdi








bog'langan, oddiy gaplardan iborat, biroq qisqa hikoya tuzdi



hikoya tuza olmadi



FARZANDIMNING NUTQI QANDAY RIVOJLANGAN?



TASAVVUR

Ko'pgina ota-onalar savod chiqarishda o'qish, yozish, sanashni bilishni muvaffaqiyat garovi deb hisoblashadi, biroq ko'pincha bular kamlik qiladi.


Maktab bilimlarini egallashda tasavvur katta ahamiyatga ega. O'qituvchining tushuntirishlarini tinglar ekan, bola o'zi hayotda hali duch kelmagan hodisalarni, hayotda bo'lmaydigan narsalarning timsollarini tasavvur qila olishi kerak.

Shuning uchun ham maktabda bilimlarni yaxshi o'zlashtirish uchun bolada, avvalo, yaxshi tasavvur qilish ko'nikmasi bo'lishi kerak.

Farzandingizning tasavvur qilish ko'nikmasi qanchalar rivojlanganini baholashga harakat qiling. Bunday baholashda ko'pgina holda sizning tasavurning rivojlanishi haqidagi o'z shaxsiy tushunchangiz mezon vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham bu borada obyektiv o'lchovni tuzish nihoyatda mushkul.

Bu bo'limga oid topshiriqlarni bajarish bolangizga qiyin tuyulsa, u bilan qo'shimcha ravishda ko'proq shug'ullaning. Buning uchun kitobdagi topshiriqlar, o'xshash mavzulardan foydalaning. Farzandingizga rasmlarga qarab hikoyalar tuzdiring, 5-topshiriqdagi kabi «xayoliy» hodisalar yuz bersa, nimalar yuz berishini birgalikda muhokama qiling, fikrlashing.


1. Berilgan shakllar asosida qandaydir qiziqarli rasm chizishga harakat qiling.



Berilgan shakllar asosida bola qiziq rasmlar chiza olsa juda yaxshi.






2. Rassom boshlagan rasmlarni oxiriga yetkazing.




Bola berilgan barcha shakllardan foydalanib biror qiziqarli rasmni chizsa juda yaxshi.



3. Bulutlar nimaga o'xshaydi?



Bola har bir bulutni hech bo'lmaganda biror narsaga o'xshata olsa juda ham yaxshi.



4. Rasmlarga qarab, ertak to'qing. Ertagingizda rasmdagi odamlar, hayvon va buyumlar ishtirok etsin.



Bola agar barcha personajlarni (qahramonlarni) ishtirok ettirib ertak tuza olsa yaxshi.



5. O‘ylab ko‘ringchi, agar ...

“to‘xtamasdan yomg‘ir yog‘sa,”

“odamlar qushlarga o‘xshab uchishni o‘rgansa, ...”

“kuchuklar odam tovushi bilan gapira boshlashsa, ...”

“barcha ertak qahramonlari tirilib kelsa, ...”

“jo‘mrakdan apelsin sharbati oqib tusha boshlasa,

...”

nima bo‘lishi mumkin?

Agar bola har bir taklif qilingan iboraga qiziqarli javob o‘ylab topsa, juda yaxshi.



6. Quyida berilgan so‘zlarni ishtirok ettirib biror hikoya yoki ertak to‘qing.

Svetofor, bola, chana.

Bola agar biror qiziq hikoya tuza olsa, uning tasavvuri yaxshi rivojlangan hisoblanadi.




7. Shakllarni jonlantiring.




Bola barcha geometrik shakllarni turli-tuman predmetlarga aylantirishi kerak.



8. Shakllarni jonlantiring.



Bola barcha geometrik shakllarni turli-tuman predmetlarga aylantirishi kerak.




9. Sehrigar ayolni shunday chizib bo'yangki, natijada uning bittasi rahmdil, ikkinchisi yovuz sehrigar ekanligi rasmda ko'rinib tursin.




10. Har bir qahramon bilan nima voqea sodir bo'lganini o'ylab topib, hikoya qilib bering.



Bola har bir qahramonning hissiy holatini tushunib, u bilan qanday voqea sodir bo'lganini gapirib berishi kerak.



FARZANDIM TASAVVUR QILISHNI BILADIMI?




ATROFIMIZDAGI OLAM

6–7 yoshli bola tevarak-atrof haqida ma'lum tushuncha, tasavvur va bilim zaxirasiga ega bo'lishi kerak. Agar bola o'simliklar va hayvonlar, narsalarning tuzilishi, holati, vaqt, astronomiya va geografiyaga oid dastlabki bilimga ega bo'lsa, yanada yaxshi.

Kitobning bu bo'limida testlar yo'q, javoblar baholanmaydi. Agar bola biz yashayotgan sayyora nomini bilmasa ham buning hech qanday xavotirli joyi yo'q va bu uning maktabga tayyorligiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Biroq bolalar maktabga qadam qo'yar ekanlar, ular tevarak-atrof haqida ko'proq savollar bera boshlaydilar. Bu bo'limda bolalarga mazkur mavzular bo'yicha bilim berish yo'nalishi ko'rsatilgan. Bo'limda bola javob bera olishi shart bo'lgan tevarak-atrofga oid asosiy savollar berilgan.

1. Tabiat



– Rasmlarni ko‘zdan kechirib, yil fasllarini ayting.

Fasllarning o‘ziga xos xususiyatlarini sanang.

– Yovvoyi hayvonlar uy hayvonlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Uy hayvonlari odamlarga qanday foyda keltiradi?

– O‘txo‘r va etxo‘r hayvonlarga misollar keltiring.

– Uchib ketadigan va qishlaydigan qushlarni ayting.

Ular nega shunday deb ataladi?

Qanday o't, buta va daraxtlarni bilasiz?

- Dala va bog' gullarini sanab bering.
- Mevali va mevasiz daraxtlarni sanab bering.
- Qanday tabiat hodisalarini bilasiz?

2. Vaqt

- Sutka nimalardan iborat?
- Kun tundan qanday farq qiladi?
- Hafta kunlarini sanab bering.
- Bahor, yoz, kuz va qish oylarini sanab bering.
- Soat kattami daqiqami, kun kattami yoki hafta? Yil kattami yoki oy?

3. Geografiya

- Qaysi shahar va mamlakatlarni bilasiz?
- Shahar qishloqdan nimasi bilan farq qiladi?
- Qanday daryolarni bilasiz?
- Daryo ko'ldan nimasi bilan farq qiladi?
- Qanday sayyoralarni bilasiz?
- Biz qaysi sayyorada yashaymiz?
- Yerning yo'ldoshi nima?

4. Dunyo va odam

– Kasblarni sana:

- * Kim bolalarni o'qitadi?
- * Kim odamlarni davolaydi?
- * Kim she'r yozadi?
- * Kim musiqa bastalaydi?
- * Kim rasm chizadi?
- * Kim uy quradi?
- * Kim avtomobil haydaydi?
- * Kim kiyim tikadi?
- * Kim kino va teatrdan rol o'ynaydi?

– Qanday predmet kerak?

- * vaqtni o'lchash uchun qanday predmet kerak?
- * uzoqdan so'zlashish uchun-chi?
- * yulduzlarni kuzatish uchun-chi?
- * og'irlikni o'lchash uchun-chi?
- * haroratni o'lchash uchun-chi?

– Siz qanday sport turlarini bilasiz?

– Sportning qaysi turlarida koptokdan, qaysi turlarida konkidan foydalaniladi?

– Bu musiqa asboblari nomini ayting



– Qaysi yozuvchilarni bilasiz?

– Halollik, yaxshilik, xasislik, qo‘rqoqlik, dangasalik, mehnatsevarlik nima?

– Nima uchun o‘qish, ishlash kerak?

– Yo‘lni qoida asosida qanday qilib kesib o‘tish mumkin?

5. Buyumlarning tuzilishi

– Nima yog‘ochdan, shishadan, plastmassadan, temirdan yasaladi?

– Nima qattiq, yumshoq, suyuq, silliq, o‘tkir, sochiluvchan bo‘ladi?

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN O'QUV NASHRLARI

BOLANGIZ MAKTABGA TAYYORMI?

Testlar to'plami

Tuzuvchilar:

Manzura NABIYEVA, Barno ABDULLAYEVA,
Shakir URISHOV, Muxtabar ABDIYEVA

Kitobda

S. GAVRINA, N.KUTYAVINA,
I. TOPORKOVA, S. SHERBININA
matnlaridan foydalanildi

Rassom A. LUKYANOV

Muharrir R. ZAPAROV
Tarjimon A. AKBAR
Musahhah O. AZIMOVA
Sahifalovchi Ye. KRASNIKOVA

MChJ «DAVR NASHRIYOTI»

www.davrbooks.uz

davrbooks@gmail.com

100029, Toshkent sh., A. Navoiy ko'chasi, 30
Tel. + (99871) 244-03-55, 244-41-56

Litsenziya raqami № AI 227

Bosishga ruxsat etildi 25.02.13. Qog'oz bichimi 84x108/16.
Pragmatica garniturası. Ofset bosma usuli. Shartli b. t. 8,40.

Nashr t. 9,8. 5000 nusxada chop etildi.

Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma №49-13.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100206,
Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangi shahar, 1.

KBK 74.102

BOLANGIZ MAKTABGA TAYYORMI? – T.: MChJ «DAVR NASHRIYOTI»,
2013. – 80b.: bez.

Testlar to'plamidan tuzilgan bu kitobni bolalar maktabga borishlaridan avval ularni testdan o'tkazishda keng qo'llash mumkin.

Ota-onalar bu testlar yordamida farzandlarining yozish malakalari, o'qish qobiliyatlari, matematik tasavvurlari, xotira, diqqat, fikrlash, nutq va faraz qilish ko'nikmalarini sinovdan o'tkazadilar. Kitob bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlari, umumiy bilimdonligi qay darajada ekanini aniqlashda ota-onalarga ko'makchi bo'ladi.